

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasining professor-o‘qituvchilari F.A.Rahmatova va U.A.Toshnazarova muallifligida tayyorlangan “Didaktik tizimlar va ularning turlari” fanidan tuzilgan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Ushbu fan dasturi 60110100 – Pedagogika va psixologiya (tarbiya fani o‘qituvchisi) mutaxassisligi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Didaktik tizimlar va ularning turlari” fani bo‘yicha o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirilgan.

Ushbu dastur zamonaviy pedagogikaning asosiy yetakchi tendentsiyalari, pedagogik masalalar hamda ularning tadqiq etilishi, pedagogik konsepsiyalar hamda pedagogika fani rivojining ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Fan dasturida bakalavr talabalariga didaktik tizimlar, ularning kelib chiqishi, didaktik tizim asoschilari nazariyalarining maqsadi, tamoyillari va vazifalari, ta’lim paradigmalariga oid fanning mazmunini, fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni, ta’lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Dastur o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi axloqiy madaniyatining o‘rni, umumiy metodlari, uzluksiz ta’limda o‘qituvchi odobi va mahoratini tashkil etishning ilmiy asoslari, o‘quv jarayonini tashkil etish uzluksiz ta’lim tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish masalalarini qamrab olgan. Taklif qilingan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar fanning mazmunini to‘la qamrab oladi.

Mualliflar tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60110100 – Pedagogika va psixologiya (tarbiya fani o‘qituvchisi) mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanish uchun tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

**A.Qodiriy nomidagi JDPU  
“Pedagogika va psixologiya”  
fakulteti dekani, pedagogika fanlari  
nomzodi, dotsent:**



**I.X.To‘raqulova.**

29.08.2022.



**A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasining o’qituvchisi U.Toshnazarova muallifligida tayyorlangan “Didaktik tizimlar va ularning turlari” fanidan tuzilgan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Ushbu fan dasturi 60110100 – Pedagogika va psixologiya (tarbiya fani o’qituvchisi) mutaxassisligi uchun mo’ljallangan bo’lib, unda “Didaktik tizimlar va ularning turlari” fani bo’yicha o’zlashtiriladigan bilim, ko’nikma va malakalar keltirilgan.


Ushbu dasturi didaktik jarayon hamda ularning tadqiq etilishi, pedagogik kontsepsiyalar hamda pedagogika fani rivojining ustuvor yo’nalishlarni o’z ichiga qamrab olgan. Ta’limga doir xalqaro tajribaga asoslangan didaktik nazariyalar dolzarb masalalarni aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o’rgatishdan iborat.

Fan dasturida bakalavr talabalariga ta’limga oid bilimlar XVII asrdan to bugungi kunga qadar butun dunyo ta’lim sohasida foydalanilib kelingan mashhur didaktik konsepsiyalar mohiyati hamda nazariyalarning mohiyatiga ko’ra pedagogning pedagogik mahorat, axloqiy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, amaliy faoliyatini takomillashtirishni, o’qituvchi odobi haqida bilim berish va axloqiy tushuncha, shakl, metod va vositalarini o’rgatishga fanning mazmunini, fan bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar, ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar mazmuni, ta’lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo’shimcha adabiyotlar ro’yxati keltirilgan.

Dastur o’quv-tarbiya jarayonida o’qituvchi axloqiy madaniyatining o’rni, umumiy metodlari, uzluksiz ta’limda o’qituvchi odobi va mahoratini tashkil etishning ilmiy asoslari, o’quv jarayonini tashkil etish uzluksiz ta’lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish masalalarini qamrab olgan. Taklif qilingan asosiy va qo’shimcha adabiyotlar fanning mazmunini to’la qamrab oladi.

Mualliflar tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60110100 – Pedagogika va psixologiya (tarbiya fani o’qituvchisi) mutaxassisligi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanish uchun tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang’ich ta’lim kafedrasini mudiri p.f.f.d (PhD) dotsent:**



**Abrorxonova K.**